O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 811.512.133’28:81’27(575.1)

Xafiza MAVLANOVA,
O‘qituvchi, Renessans ta’lim universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: hafizamavlonova9@gmail.com

Fakultetlararo ingliz tili kefedrasi dotsenti v.b., N. Kurbanova taqrizi asosida

O‘ZBEK DRAMALAR NUTQINING SOTSIOLINGVISTIK XOSLANISHIDA DIALEKTIZMLARNING AHAMIYATI (SH.BOSHBEKOVNING “TEMIR XOTIN” DRAMASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek dramaturgiyasida personajlar nutqining sotsiolingvistik xususiyatlarini shakllantirishda dialektal birliklarning funksional imkoniyatlari Sh.Boshbekovning “Temir xotin” dramasi misolida tadqiq etiladi. Asarda qo‘llangan dialektizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, nutq jarayonidagi o‘rni va badiiy vazifasi tahlil qilinadi. Shuningdek, dialektal unsurlarning personajlarning hududiy mansubligi, ijtimoiy muhiti, dunyoqarashi va individual nutqiy qiyofasini ifodalashdagi ahamiyatiga e’tibor qaratiladi. Tadqiqotda dialektizmlar shunchaki mahalliy nutq belgisi sifatida emas, balki obraz yaratish, personaj xarakterini ochish va dramatik vaziyatning tabiiyligini ta’minlashga xizmat qiluvchi lingvopoetik vosita sifatida baholanadi. Natijalar dialektal birliklarning dramaturgik matndagi sotsiolingvistik va estetik imkoniyatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Dialektizm, sheva, sotsiolingvistika, dramatik nutq, personaj nutqi, nutqiy individuallik, hududiy xoslanish, ijtimoiy xoslanish, mahalliy kolorit, lingvopoetika, “Temir xotin”.

THE SIGNIFICANCE OF DIALECTISMS IN THE SOCIOLINGUISTIC CHARACTERIZATION OF SPEECH IN UZBEK DRAMA (WITH SH. BOSHBEKOV’S “IRON WOMAN” AS AN EXAMPLE)

Annotation

This article examines the functional potential of dialectal units in shaping the sociolinguistic features of characters’ speech in Uzbek drama, based on Sh. Bashbekov’s play Temir Khotin (The Iron Woman). The study analyzes the lexical and semantic characteristics of dialectisms, their role in speech, and their artistic functions within the dramatic text. Particular attention is paid to the significance of dialectal elements in reflecting the characters’ regional affiliation, social environment, worldview, and individual speech patterns. Dialectisms are considered not merely as markers of local speech, but also as linguopoetic devices that contribute to character creation, reveal the personalities of the characters, and enhance the naturalness of dramatic situations. The findings highlight the sociolinguistic and aesthetic potential of dialectal units in literary texts.

Key words: Dialectism, dialect, sociolinguistics, dramatic speech, character speech, speech individuality, regional variation, social variation, local color, linguopoetics, The Iron Woman.

ЗНАЧЕНИЕ ДИАЛЕКТИЗМОВ В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ РЕЧИ В УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ (НА МАТЕРИАЛЕ ДРАМЫ Ш. БАШБЕКОВА «ЖЕЛЕЗНАЯ ЖЕНЩИНА»)

Аннотация

В статье исследуются функциональные возможности диалектных единиц в формировании социолингвистических особенностей речи персонажей узбекской драматургии на материале пьесы Ш. Башбекова «Железная женщина» («Темир хотин»). Анализируются лексико-семантические особенности диалектизмов, их роль в речевом процессе и художественная функция в структуре драматического текста. Особое внимание уделяется значению диалектных элементов в отражении территориальной принадлежности персонажей, их социальной среды, мировоззрения и индивидуального речевого облика. Диалектизмы рассматриваются не только как маркеры локальной речи, но и как лингвопоэтические средства создания образа, раскрытия характера персонажа и обеспечения естественности драматической ситуации. Полученные результаты позволяют раскрыть социолингвистический и эстетический потенциал диалектных единиц в художественном тексте.

Ключевые слова: Диалектизм, говор, социолингвистика, драматическая речь, речь персонажа, речевая индивидуальность, территориальная обусловленность, социальная обусловленность, местный колорит, лингвопоэтика, «Железная женщина».

Kirish. Dialektal leksika ma’lum bir geografik hudud yoki ijtimoiy guruhning nutqiga xos bo‘lgan, adabiy tilning umumqabul qilingan normasiga kirmaydigan so‘z va iboralarni o‘z ichiga oladi. Bu so‘zlar, odatda, ma’lum bir dialekt yoki sheva vakillari tomonidan faqat o‘sha muhitda qo‘llaniladi va ular dialektizmlar deb ataladi. Dialektizmlar nutqning sotsial xoslanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, mahalliy madaniyatga mansubligi va til odatlarini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Sharof Boshbekovning dramalarida dialektal leksika qahramonlarning qishloq muhitiga xos nutq xususiyatlarini ta’kidlash, ularning obrazini tabiiy va ishonchli qilish uchun qo‘llaniladi. Bu leksik birliklar personajlarning ijtimoiy-madaniy identifikatorlari sifatida ishlaydi, chunki ular nafaqat qahramonlarning geografik yoki etnik kelib chiqishini, balki ularning ta’lim darajasi va global adabiy til bilan aloqasining cheklanganligini ham ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. J.L.Mey dramatik asarlarda nutqning xoslanishi haqida fikr bildirib, unda ikki asosiy jihat: kommunikant va nutqiy aktga e’tibor qaratadi. Kommunikant nutqi, ijtimoiy kelib chiqishi, jinsiga, yoshiga, ma’lumotiga, oldingi hayot tarixiga va boshqalarga nisbatan xoslanadi [8].

Norman Ferklo ularni “fon bilimlari” deb ataydi [9]. Asosiy diqqat qaratish lozim bo‘lgan jihat esa mavjud nutqiy vaziyat sanaladi. J.Verxyerenga ko‘ra diskurs ishtirokchilarining har biriga ma’lum bo‘lgan umumiy holat. Kommunikantlar ushbu vaziyatni beixtiyor baholab boradi va bu baholashlar hosilasi sotsiopragmatik jihatdan xoslangan nutq sanaladi. Buni shunday izohlash mumkinki, tinglovchi ham, so‘zlovchi ham mavjud vaziyat haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘ladi va mavjud ma’lum ma’lumotlarga asoslanib, masalani hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi [10].

Sh. Xudoyqulova dialektizmlarning qo‘llanilishi, shuningdek, asarning badiiy koloritini boyitishga va muayyan hududning mahalliy madaniyatini aks ettirishga xizmat qilishi haqida aytib o‘tgan [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tavsifiy, sotsiolingvistik, kontekstual, qiyosiy, funksional-stilistik, lingvopoetik va statistik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbek tilining dialektal qatlami o‘zining murakkab tuzilishi va xilma-xil sheva-dialektlari bilan tilning sotsial-lingvistik xoslanishini aks ettiradi. Ushbu qatlam adabiy tildan va o‘zaro farqlanadigan fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, badiiy adabiyotda muhim stilistik vosita sifatida qo‘llaniladi [2].

Dialektizmlar nutqning sotsial xoslanishi orqali qahramonlarning ijtimoiy sinfiy xususiyatlarini, ta’lim darajasini va mahalliy muhit bilan aloqasini ko‘rsatadi. Ular asarning badiiy koloritini boyitish bilan birga, kitobxon yoki tomoshabinlarda emotsional aloqa o‘rnatish imkonini beradi [3].

O‘zbek tilining dialektal qatlami badiiy adabiyotda muhim stilistik vosita sifatida qahramonlarning nutqini individuallashtirish, mahalliy muhitni tasvirlash va asarning estetik qiymatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Dialektizmlar nutqning sotsial xoslanishi orqali personajlarning ijtimoiy-psixologik portretini chuqur tasvirlaydi va asarning ta’sirchanligini mustahkamlaydi.

Nozik	***O'zimam*** *shunaqa ahvolga tushasiz deb* ***o'ylovdim***. (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)
Pirmat	*Endi-i* ***munday.*** *Gaplaringni indamay o'tirib eshitdim. Qani, menga aytinglar-chi, Rahmatilla deganlaring qanaqa odam edi?* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)
Qo'chqor...	*Chalasavod! Rasmi yo'q ekan deb* ***gazit*** *o'qimaydi.* (Sh. Boshbekov. Temir xotin. - Toshkent. 1990.)

O‘zbek tilining dialektal qatlamini tahlilga tortar ekanmiz, keltirilgan misollarda dialektal leksik birliklarning grammatik va leksik usullar orqali shakllanishi aniq kuzatiladi, bu esa nutqning sotsial xoslanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mahalliy muhitning lingvistik va madaniy o‘ziga xosliklarini yoritishda muhim rol o‘ynaydi.

Dialektizmlar qahramonlarning ijtimoiy sinfiy xususiyatlarini, masalan, qishloq aholisining oddiy hayot tarzini, ta’lim darajasining cheklanganligini yoki adabiy til bilan cheklangan aloqasini ko‘rsatadi. Ushbu leksik birliklar, shuningdek, muayyan hududning madaniy va etnografik xususiyatlarini aks ettirish orqali asarning estetik qiymatini oshiradi. Natijada, dialektizmlardan o‘rinli foydalanish asarning badiiy ta’sirchanligini mustahkamlash bilan birga, qahramonlarning psixologik portretini va ularning ijtimoiy kontekstdagi o‘rnini yanada chuqur va ko‘p qirrali qilib tasvirlaydi.

Qo'chqor	*Uyda bo'lsa tokqaychisini berib tursin,* ***devdim.*** *Ishkom* ***jaa*** *tarvaqaylab ketibdi.* (Sh. Boshbekov. Temir xotin. - Toshkent. 1990.)
Olimjon	*Qo'chqor aka! Turobjon! Iye, eshik ochiq-ku...* ***Kennoyi.*** (Sh. Boshbekov. Temir xotin. - Toshkent. 1990.)

Hozirgi adabiy nutq lug‘atining katta bir qismining dastlab dialektal leksika sifatida shakllanganligi va keyinchalik umumlashtirilgan holda adabiy tilga integratsiyalashuvi ushbu jarayonning muhim ko‘rinishi hisoblanadi. Bunday lug‘aviy birliklarning adabiy tilga kirishi, bir tomondan, tilning leksik boyligini oshirsa, boshqa tomondan, mahalliy nutq xususiyatlarini saqlab qolish va ularni umumiy til muhitida qo‘llaniladigan shaklga keltirish imkonini beradi [4]. Bu jarayon nutqning sotsial xoslanishi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega, chunki dialektal leksika nafaqat tilning regional xilma-xilligini aks ettiradi, balki ijtimoiy guruhlarning madaniy va etnografik o‘ziga xosliklarini ham yoritadi.

Dialektizmlarning adabiy tilga kiritilishi tilning ijtimoiy sinfiy va regional xususiyatlarini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, qishloq muhitida shakllangan dialektal so‘zlar adabiy tilga kiritilganda, ular nafaqat mahalliy koloratni saqlab qoladi, balki qahramonlarning ijtimoiy identifikatorlarini, masalan, ularning qishloq aholisiga mansubligi yoki ta’lim darajasining cheklanganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday so‘zlarning adabiy nutqqa integratsiyalashuvi tilning dinamik rivojlanishini ta’minlaydi, chunki ular adabiy tilning leksik chegaralarini kengaytirib, uning stilistik va semantik imkoniyatlarini oshiradi. Natijada, dialektizmlardan o‘rinli foydalanish adabiy tilning boyishiga xizmat qilish bilan birga, uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan aloqasini mustahkamlaydi va tilning umumxalq tiliga yaqinlashishini ta’minlaydi.

Qulmat (chiqib ketib ichkaridan)	*Ertaga Rahmatilla bosh, biz yonbosh- shahar aylanamiz. Hammayoq o'zgarib ketgan hozir. Yerning ustidayam* ***poyiz*** *yuradi, ostidayam.* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)

Adabiy tilning evolyutsion rivojlanishi va semantik boyishi, uning shevalar bilan o‘zaro ta’sir darajasiga chambarchas bog‘liqdir. Dialektal so‘zlarning adabiy asarlarda qo‘llanilishi, ularning adabiy tilning normativ tizimiga integratsiyalashuvi yoki aksincha, faqat badiiy kontekstda cheklangan holda qolishi, konkret tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar asosida tahlil qilinishi lozim. Bu jarayon dramatik nutqning sotsial xoslanishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganda, dialektizmlarning nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy identiklik, madaniy xotira va estetik ifoda vositasi sifatida muhim rol o‘ynashi aniqlanadi. Shu sababli, dialektal so‘zlarning adabiy tilga o‘tish dinamikasi va ularning badiiy asardagi funksional xususiyatlari o‘zaro ta’sirning murakkab mexanizmlari sifatida keng ko‘lamli izlanishlarni talab etadi.

Pirmat	***Lo'kkavo'yga*** *o'tirayotib* ***sho'pir*** *bola "qayoqqa hayday?" desa,* ***indalmi*** *tamshanib qolding- ku. Keyin men aytdim. " Kunbotishga hayda" deb.* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)

Badiiy matnning lisoniy tahlili jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahorati, xususan, emotsional-ekspressiv ifoda vositalarining qabariq ko‘rinishda amalga oshirilgan leksik birliklari aniqlanadi va ularning adibning badiiy-estetik maqsadlariga qay darajada xizmat qilgani tahlil qilinadi. Bu jarayonda ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli, ko‘p ma’noli, tarixiy, arxaik so‘zlar, yangi so‘z yasalmalari, shevaga xos leksika, shuningdek, chet til so‘zlari va vulgar leksika ajratib olinadi va ularning asarda qo‘llanilish maqsadi, ya’ni estetik, sotsial yoki madaniy funksiyasi izohlanadi. Bunday tahlil, ayniqsa, dialektal so‘zlarning dramatik nutqning sotsial xoslanishi doirasida qanday rol o‘ynashini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Dialektal leksika mahalliy koloritni va hududiy o‘ziga xoslikni aniq aks ettirish bilan birga, badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi, bu esa asarning vizual va hissiy ta’sirchanligini oshiradi. Biroq, dialektizmlarning estetik qiymati ularning badiiy nutqda qo‘llanilish me’yori, ishlatilish uslubi va qaysi turdagi dialektal so‘zlar tanlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, dialektal so‘zlarning badiiy asardagi funksiyasi nafaqat lingvistik, balki sotsiolingvistik va madaniy kontekstda ham tahlil qilinishi lozim bo‘lib, bu jarayon dramatik nutqning ijtimoiy-madaniy xoslanishi orqali yanada chuqur ma’no kasb etadi [6].

Qulmat — *Men nima **devdim.** Rahmatillaning obro'si zo'r. Ha, **Navisaxon** yaxshi ish qilmapti.* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)

Dialektizmlar adabiy asar tilining estetik jozibadorligini oshirish, qahramonlar nutqining individual xususiyatlarini ta’kidlash va tasvirlanayotgan voqea-hodisalarning geografik-madaniy kontekstini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu lingvistik unsurlar, ma’lum bir maqsadga xizmat qilgan holda, badiiy tilning tarkibiy qismiga integrallashgan bo‘lib, ular muayyan dialekt yoki mahalliy shevalarga xos fonetik, morfologik, leksik va sintaktik xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan so‘z va iboralar sifatida namoyon bo‘ladi. Dialektizmlarning badiiy nutqdagi funksional ro‘li, bir tomondan, matnning sotsial-madaniy muhit bilan bog‘lanishini ta’minlasa, boshqa tomondan, dramatik nutqning ijtimoiy xoslanishini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ular orqali qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, hududiy mansubligi va madaniy o‘ziga xosligi aniq ifodalanib, asarning sotsial-dramatik ta’sirini yanada kuchaytiradi.

Pirmat — *Voy, omi-yey, kim aytadi seni **pront** ko'rgan deb! General harbiy bo'ladi, kalla.* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)

Shoir — ***Nima deyatuvdim, nevarali** bo' ladigan bolaga o'xshab. Nima qiliq bu axir?* (Sh. Boshbekov. Eshik qoqqan kim bo'ldi. - Toshkent. 1989.)

Xulosa va takliflar. Dialektal so‘zlarning badiiy matn tarkibiga sinchkovlik bilan kiritilishi yozuvchidan yuqori darajadagi mahorat va lingvistik sezgi talab etadi. Sharof Boshbekovning dramatik asarlarida dialektizmlar o‘ziga xos uslubiy o‘rin egallagan bo‘lib, ular muallif tomonidan nafaqat matnning estetik boyligini oshirish, balki tasvirlanayotgan voqea va qahramonlarning ijtimoiy-madaniy muhitini aniq aks ettirish maqsadida mohirona qo‘llanilgan. Yozuvchi shevaga xos leksik birliklardan foydalanish orqali asarning badiiy ta’sirchanligini va dramatik nutqning sotsial xoslanishini kuchaytirib, qahramonlarning mahalliy o‘ziga xosligini va ularning ijtimoiy kontekstini muvaffaqiyatli yoritib bergan.

ADABIYOTLAR

1. Xudoyqulova Sh. E.Vohidov she‘riyatida dialektizmlar. // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. – №2. –T.:TDPU, 2008. – B. 98-99.
2. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.
3. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т. 1987.
4. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
5. Qilichev E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand, 1994.77 b.
7. Sh.Boshbekov. Temir xotin. Komediya. www.ziyonet.com
8. Mey J.L. Pragamatics: an introduction 2 nd ed. – Oxford: Blackwell. 2001.
9. Fairclough N. Language and power. – London: Longman. 1989.
10. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent.1998.
11. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – B. 221-222.
12. Madaminova G. O‘quvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishda ta’limiy dramalarning o‘rni (ingliz tili). Ped.f.f. d-ri. avto-ref. – Toshkent. 2023. 53 b.
13. Мамадов Х. Лексикостилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Т., 1969.
14. Mustafayeva N. Sharof boshbekov dramalarida lisoniy imkoniyatlarning sotsial xoslanishi. Filol.f.f. d-ri. avto-ref. – Andijon. 2025. 48 b.